

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

QALANDAROV O'LMAS FAXRIDDIN O'G'LI

ERON TASHQI SIYOSATIDA AFG'ONISTON OMILI
(XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARI)

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy
(PhD) in historical science**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

Qalandarov O‘lmas Faxriddin o‘g‘li Eron tashqi siyosatida Afg‘oniston omili (XX asr oxiri – XXI asr boshlari).....	3
Kalandarov Ulmas Fakhriddin ugli Afghanistan’s factor in Iran’s foreign policy (end of 20 th century - beginning of 21 st century).....	19
Каландаров Улмас Фахриддин угли Афганский фактор во внешней политике Ирана (конец XX – начало XXI вв.)	35
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ.....	40

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

QALANDAROV O'LMAS FAXRIDDIN O'G'LI

**ERON TASHQI SIYOSATIDA AFG'ONISTON OMILI
(XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARI)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.3.PhD/Tar1496 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xodjimuratova Dilshoda Sunnatillayevna**
tarix fanlar doktori, dotsent v.b

Rasmiy opponentlar: **Abdullayev Nodir Abdulxayevich**
siyosiy fanlar doktori, professor

Zohidov Qobiljon Toirjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur Shoh ko'chasi, 20. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (104-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur Shoh ko'chasi, 20. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 28-oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 28-oktyabrdagi 18-raqamli reyestr bayonnomasi).

M. M. Is'hoqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

N. R. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

S. B. Shadmanova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida yuz berayotgan harbiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davlatlarning ichki va tashqi siyosiy jarayonlariga chuqur ta'sir ko'rsatib, xalqaro munosabatlar tizimini qayta shakllantirmoqda. Bunday sharoitda davlatlararo hamkorlikni samarali tashkil etish, milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Eron kabi islom olamida katta nufuzga ega davlatning harbiy-siyosiy beqarorlik, xavfsizlik muammolarining chuqurlashuvi, iqtisodiy inqiroz hamda xalqaro izolyatsiya sharoitida qolayotgan Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixini ilmiy muammo sifatida global hamda mintaqaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida tarix fanlari doirasida islom inqilobi natijasida diniy-siyosiy davlat boshqaruv asosida tashkil etilgan Eron Islom Respublikasining musulmon davlatlar bilan xalqaro munosabatlarini kompleks o'rganish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmogda. Eron rahbariyati qo'shni Afg'onistonda milliy-etnik guruhlarining mavqelari mutanosib inobatga olingan barqaror siyosiy tizim shakllanishidan manfaatdor. Bunday yondashuv nafaqat Eronning milliy xavfsizlik strategiyasi, balki butun mintaqaning siyosiy barqarorligi bilan bog'liq bo'lib qolayotgani nuqtai nazaridan Afg'oniston muammosini Tehron tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari nigohida o'rganish Markaziy Osiyo respublikalari uchun ham strategik va amaliy ahamiyatga molik.

O'zbekiston tashqi siyosatida xorijiy davlatlar, jumladan, Eron Islom Respublikasi bilan o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Bugun "Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning birdamligini ta'minlash, ular o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, urushlar, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish tobora avj olayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka tahdid solayotgan xavflarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi"¹. Mintaqada strategik ahamiyatga ega davlat sifatida e'tirof etilayotgan Eronning tashqi siyosatida Afg'oniston omilining tutgan o'rni va unga nisbatan yondashuvlari xalqaro munosabatlar tizimida alohida e'tiborga molik bo'lib qolmoqda. Ularni Afg'onistondagi hozirgi sharoitidan kelib chiqib, ilmiy o'rganish Eron tashqi siyosati dinamikasini chuqur anglash mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Zero, Eron-Afg'oniston munosabatlarining ilmiy tahlili O'zbekistonning iqtisodiy diplomatiyasini ilgari surishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2018-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-sha-18-10-2016>

iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning ma‘suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5400-son va 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680 sonli qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur dissertatsiya fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirga qadar Eron tashqi siyosatini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekistonda va yetakchi xorijiy davlatlarda muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Eron tashqi siyosati konsepsiyasi, tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlari, qator mahalliy va xorijiy mamlakatlarning ilmiy tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Strategik tadqiqotlar markazi, Siyosiy va xalqaro tadqiqotlar instituti, Milliy tadqiqotlar instituti (Yeron), Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi (AQSh), Sharqshunoslik instituti (Rossiya), “Al-Ahrom” siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi (Misr), Strategik tadqiqotlar markazi (BAA), Ijtimoiy fanlar akademiyasi (Xitoy), Eron tadqiqotlari markazi (Turkiya)da muhim tadqiqotlar olib borilgan.

Eron tashqi siyosati evolyutsiyasi, uning ustuvor yo‘nalishlari, xususiyatlari va tamoyillari, shuningdek, Tehron tashqi siyosiy manfaatlarini tizimida Afg‘onistonning o‘rni, Tehron va Qobulning ikki tomonlama munosabatlarini tadqiq etgan o‘zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy ishlarini muammoviy-xronologik asosda ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga² XX asr oxiri va XXI asr boshida Erondagi xalqaro-siyosiy transformatsiya sharoitlarida rasmiy Tehronning mintaqaviy siyosati va xalqaro munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar kirgan. Bu borada o‘zbekistonlik olimlar A.Xaydarov, G.Yo‘ldasheva, D.Xodjimuratova, S.Fayzullayev asarlari, hamda rus tilida e‘lon qilingan N.Mamedova, V.Yurtayev, A.M.Vartanyan, I.Fedorova, V.Ushakov, L.Kulagina, V.Mesamed, K.Markov, S.Kondratyev, V.Kurshakov, N.Kojanov tadqiqotlari, ingliz tilida nashr qilingan E.Uostnij, T.Juno, R.Sem, K.Kasman, P.Ostvich, L.Zakkara E.Anushervon, M.Zveiriy, M.Sanjapur, A.Shahram kitoblar hamda fors tilida chop etilgan R.Ramazoniy, S.Dehqoniy-Firuzobodiy, X.Movlonov, M.Muhammadiy, A.Azgandiy va boshqa ko‘plab olimlarning ilmiy ishlarida chuqur o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda Eron tashqi siyosatining evolyutsiyasi, xususan, tashqi siyosatining mohiyati, unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilingan.

²Ushbu adabiyotlar va ularning mualliflari ilmiy ishlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

Ikkinchi guruhni³ Eron va Afg'oniston o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar dinamikasi, o'zaro munosabatlari xususiyatlari, shuningdek, Eronning milliy xavfsizlik tizimida Afg'onistonning o'rni borasidagi ilmiy ishlar tashkil etgan. Bu borada ingliz tilida ijod qiluvchi H.J.Morgenthau, D.Frankel, G.Fuller, Sh.Hanter, D.Phillips, M.Krisin, Z.Shahab hamda S.Ibrohimiya, M.R.Gulshanpozuh, M.K.Isfaxoniy, o'z asarlarini fors tilida yozgan Xusayn Pur-Ahmadiy, Asg'ar Qahramonpur, Asg'ar Eftexoriy, Muhammad Xasan Saburiy, Xodi Shejoiy, tadqiqotlarini rus tilida e'lon qilgan B.B.Sergeyev, M.Lebedeva, V.Korgun, O.Leonova, A.Davidov, S.N.Kuznetsov, M.R.Arunova, O.Stolpovskiy, A.Ya.Boguslavskiy singari xorijlik olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda Eron tashqi siyosatida Afg'oniston yo'nalishining kuchayishi, savdo-iqtisodiy hamkorlik jihatlari, ikki davlat o'rtasidagi muammoli masalalar atroflicha tadqiq etilgan.

Yuqoridagi ilmiy ishlarni e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, mazkur mavzuni yoritgan har bir tadqiqotchi muammoni, avvalo, o'z mamlakatining milliy manfaatlari nuqtai nazaridan o'rgangan. Xorijda bu sohada ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan va ma'lumotlar to'plangan bo'lsa-da, O'zbekistonda ushbu mavzu alohida tadqiq etilmagan. Bundan tashqari, yurtimizda Eron tarixi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari mavzusida bir qator ilmiy ishlar mavjudligiga qaramay, ushbu mamlakat tashqi siyosatida Afg'oniston omili va Eron-Afg'oniston munosbatlarining Markaziy Osiyoga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan maxsus tahlil etilmagan. Bu borada hal qilinmagan va o'rganilmagan ko'plab muammolar va masalalar saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, hamon alohida tadqiqot mavzusi bo'lmaganini ko'rish mumkin. Muammoning katta nazariy va amaliy ahamiyati, dolzarbligi va to'liq o'rganilmaganligi tadqiqot uchun ushbu mavzu tanlanishiga asos bo'lgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli "Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri", A-1-191 raqamli "Xorijiy tillarda tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish" mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asrning 80-yillaridan keyin Eron va Afg'oniston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar dinamikasi hamda Tehron tashqi siyosatidagi strategik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi va bajarildi:

Tadqiqotning vazifalari. Mazkur maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilandi va bajarildi:

Eron tashqi siyosati evolyutsiyasini tadqiq etish;
islom inqilobining Eron tashqi siyosati yangi paradigmasi shakllanishiga ta'sirini o'rganish;

³Ushbu adabiyotlar va ularning mualliflari ilmiy ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Eron tashqi siyosati xususiyatlari va tamoyillarini ochib berish;
Tehron tashqi siyosiy manfaatlari tizimida Afgʻonistonning oʻrni yoritish;
Eronning islom inqilobi gʻoyasini Afgʻonistonga eksport qilish siyosatini tahlil qilish;

Eronning Afgʻonistonga nisbatan “yumshoq kuch” siyosati xususiyatlarini ochib berish;

Eron va Afgʻoniston oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini tadqiq etish;
Eron-Afgʻoniston munosabatlarida suv muammosini oʻrganish;
afgʻon migrantlarining Eron jamiyatiga infiltratsiyasi tahlil etish.

Tadqiqotning obyektini sifatida XX asr oxiri va XXI asr boshida Erondagi xalqaro-siyosiy transformatsiya sharoitlarida rasmiy Tehronning qoʻshni Afgʻonistonga nisbatan tashqi siyosatini oʻrganish belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Eron rahbariyatining Afgʻonistonga nisbatan tashqi siyosati tamoyillari, yoʻnalishlari va ustuvorliklari, shuningdek, mintaqahamda xalqaro miqyosda amalga oshirish vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil hamda muammoviy-davriy, strukturali-funksional va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Eron rahbariyatining XX asr oxiri – XXI asr boshidagi qoʻshni Afgʻonistonga nisbatan tashqi siyosat strategiyasi mintaqaviy geosiyosiy muhit, xalqaro kuchlar muvozanati, chegaradosh davlatlar bilan munosabatlar hamda mazkur davlatning ichki siyosiy barqarorligi, xavfsizlik tahdidlari va etnik-konfessional tarkibiga asosan shakllanadigan keng qamrovli omillar majmuasiga bogʻliq boʻlgani isbotlangan.

XX asr oxiri – XXI asr boshida Afgʻoniston muammosini hal etish jarayonida Eronning jahon siyosatidagi oʻrni belgilab beruvchi geografik, madaniy, iqtisodiy, xavfsizlik va geosiyosiy omillarning oʻzaro uygʻunligi bois Tehron mintaqaviy xavfsizlik tizimida va xalqaro munosabatlar dinamikasida hal qiluvchi kuch sifatida namoyon boʻlgani hamda tashqi siyosat doktrinasi gibridd-konseptual platforma vazifasini bajargani ilmiy dalillangan.

Eron va Afgʻonistonning xalqaro izolyatsiya hamda siyosiy-iqtisodiy sanksiyalar sharoitida mintaqaviy munosabatlarda oʻziga xos strategik oʻrin egallashi, ularning tashqi siyosat yoʻnalishlari realizm va konstruktivizm konsepsiyalarida taʼkidlangan xavfsizlik-hamkorlik muvozanati nuqtai nazaridan namoyon boʻlayotgani hamda savdo yoʻlaklari, transport-logistika va energetika infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy xavfsizlik vositalari orqali mintaqaviy barqarorlikka taʼsir koʻrsatgani asoslangan.

XX asr oxiri – XXI asr boshida Eron tashqi siyosat manfaatlari tizimida Afgʻonistonning geostrategik ahamiyati, xavfsizlik omillari va mintaqaviy barqarorlikdagi roli kompleks tahlil qilinib, ushbu jarayonda islom inqilobi gʻoyasini eksport qilish siyosatining tarixiy-mafkuraviy taʼsiri, geosiyosiy raqobatdagi oʻrni hamda Tehronning “yumshoq kuch” vositalari orqali amalga oshirgan madaniy, diniy va gumanitar faoliyati hamda afgʻon migrantlarining Eron

jamiyatiga infiltratsiyasi tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri ilmiy ochiqqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tarix fanlarida tan olingan uslub va fanlararo yondashuvlar asosida Eron tashqi siyosatida Afg'oniston omilini tadqiq etish va o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy-uslubiy jihatlar aniqlangan; Eron va Afg'oniston munosabatlari tajribasini o'rganish asosida O'zbekistonning ushbu ikki davlatlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar haqida ilmiy xulosalar chiqarilib, tegishli amaliy takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallaridan tarix, xalqaro munosabatlar tarixi, Eron tashqi siyosati bo'yicha darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida, "Eron tarixi", "Sharq mamlakatlari diplomatiyasi tarixi", "Jahon tarixi", "Mamlakatshunoslik" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr oxiri – XXI asr boshlari Eron tashqi siyosatida Afg'oniston omili bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

Eron tashqi siyosat manfaatlarini tizimida Afg'onistonning geostrategik ahamiyati, xavfsizlik omillari va mintaqaviy barqarorlikdagi roli kompleks tahlil qilinib, ushbu jarayonda islom inqilobi g'oyasini eksport qilish siyosatining tarixiy-mafkuraviy ta'siri, geosiyosiy raqobatdagi o'rni hamda Tehronning "yumshoq kuch" vositalari orqali amalga oshirgan madaniy, diniy va gumanitar faoliyati hamda afg'on migrantlarining Eron jamiyatiga infiltratsiyasi tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri borasidagi ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 17-sentyabrdagi 02/435-sonli dalolatnomasi). Natijada tashqi siyosiy jarayonlarni o'rganishning axborot-tahlil bazasining takomillashishiga, mazkur sohada olib boriladigan ilmiy-tahliliy ishlarning samaradorligining oshishiga xizmat qilgan.

XX asr oxiri – XXI asr boshi Afg'oniston muammosini hal etish jarayonida Eronning jahon siyosatidagi o'rni belgilab beruvchi geografik, madaniy, iqtisodiy, xavfsizlik va geosiyosiy omillarning o'zaro uyg'unligi bois Tehron mintaqaviy xavfsizlik tizimida va xalqaro munosabatlar dinamikasida hal qiluvchi kuch sifatida

namoyon bo'lgani hamda tashqi siyosat doktrinasi gibril-konseptual platforma vazifasini bajargani ilmiy dalillangan tadqiqot natijalari va xulosalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasi xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rgangan holda qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish hamda siyosiy jarayonlarga oid axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasining 2025-yil 17-sentyabrdagi 01-27/393-sonli ma'lumotnomasi). Natijada partiya faoliyatini tizimli tashkil etish, jamiyatda siyosiy islohotlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat organlari o'z faoliyatida inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmiga tayanish zaruriyati bo'yicha takliflar tayyorlashga xizmat qilgan.

Eron rahbariyatining XX asr oxiri – XXI asr boshidagi qo'shni Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosat strategiyasi mintaqaviy geosiyosiy muhit, xalqaro kuchlar muvozanati, chegaradosh davlatlar bilan munosabatlar hamda mazkur davlatning ichki siyosiy barqarorligi, xavfsizlik tahdidlari va etnik-konfessional tarkibiga asosan shakllanadigan keng qamrovli omillar majmuasiga bog'liq bo'lgani borasidagi xulosalardan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tayyorlangan "Sharq mamalatlari taraqqiyoti tarixining tizimli tahlili darsligida foydalanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yil 23-sentyabrdagi 03-03-02/2405-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya mavzusi doirasida tadqiq qilingan ilmiy natijalar "Eronning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi xususiyatlari", "Turkiya, Eron va Afg'onistonning rivojlanish bosqichlari tahlili" va "Afg'oniston muammosining genezisi va evolyutsiyasi" mavzularini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta ilmiy-amaliy anjumanda, xususan, 2 ta xalqaro darajadagi va 1 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'qqiz paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot

natijalarining aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi** **“Eron tashqi siyosatining tarixiy xususiyatlari va konseptual asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda mamlakat tashqi siyosati evolyutsiyasi, 1979-yildagi islom inqilobining Eron tashqi siyosati yangi paradigmasi shakllanishiga ta'siri, shuningdek, tashqi siyosati xususiyatlari va tamoyillari keng tadqiq etilgan. Xususan, mamlakat tashqi siyosat strategiyasining evolyutsiyasi tizimli tahlil qilingan. Eron diplomatiyasi an'anaviy davlatchilik manfaatlari, diniy mafkura, pragmatik yondashuv va strategik suverenitet tamoyillarining o'zaro ta'siri asosida shakllanib, turli davrlarda xalqaro sharoitlarga moslashganligi ko'rsatilgan. Eronda Pahlaviylar sulolasi hukmronligi davrida modernizatsiya siyosati ustuvorlik qilgan bo'lsa, 1979-yildagi islom inqilobidan so'ng tashqi siyosat “Islom ummati g'oyasi” va “Na Sharq, na G'arb” doktrinasi asosida yo'naltirildi. 1990-yillardan Tehron isteblashmentida pragmatik yondashuv kuchayib, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro integratsiyaga ustuvor ahamiyat berilgan. XXI asrda tashqi siyosat yo'nalishlari bosqichma-bosqich takomillashib, Eron prezidentlari – M.Xotamiy davrida sivilizatsiyalar muloqoti tashabbusi, M.Ahmadinajod davrida radikal ritorika, X.Ruhoniy rahbarligida diplomatik ochiqlik va yadroviy kelishuv hamda I.Raisiy davrida esa “Sharqqa yuzlanish” strategiyasi ustuvorlik qilgani aniqlangan.

Dissertatsiyada Eron tashqi siyosatining evolyutsiyasi tahlil qilingan holda, mamlakatning dunyoviy rivojlanish yo'lini tanlagan davlatlar bilan konstruktiv hamkorlikka tayyor ekanligi ta'kidlangan. Qayd etilishicha, tashqi siyosatga islom omilining ta'siri yangi siyosiy elitaning pragmatik va realistik yondashuvi bois nisbatan pasaygan, Eronning ekspansionizmi esa ko'proq qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy sohada namoyon bo'lgan. Shuningdek, tadqiqotda Eron rahbariyati tashqi siyosiy faoliyatda, birinchi navbatda, milliy manfaatlarni ta'minlashga ustuvorlik bergani ta'kidlangan. Qayd etilishicha, Eron tashqi siyosat konsepsiyasi prezidentlar almashishi bilan muayyan o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, R.Xumayniy tomonidan asoslangan va Asosiy qonunda mustahkamlangan tamoyillar o'z kuchini yo'qotmagan. Shu tariqa, Eron tashqi siyosatning asosiy prinsiplari hozirga qadar dolzarbligini saqlab qolgan ochib berilgan.

Islom inqilobi natijasida Eron tashqi siyosatida diniy legitimizmga asoslangan strategiya muhim o'rin tutgani ko'rsatib berilgan. Qayd etilishicha, ushbu jarayon milliy va diniy identiklik uyg'unligi asosida tashqi siyosatni qayta shakllantirgan hamda mintaqaviy liderlik va musulmon davlatlari o'rtasidagi integratsiya konsepsiyalarini vujudga keltirgan. Eron xalqaro munosabatlarda mustaqil aktor sifatida namoyon bo'lgani ochib berilgan.

Eron tashqi siyosatining evolyutsiyasida 1979-yilgi islom inqilobi burilish nuqtasi sifatida baholangan hamda davlat siyosiy kursi shakllanishida institusional omillar muhim ahamiyat kasb etgani ko'rsatib berilgan. Ta'kidlanishicha, Eron konstitutsiyasiga ko'ra, tashqi siyosat yo'nalishlarini belgilash va strategik qarorlar qabul qilish Oliy rahbar tasarrufida bo'lib, mazkur institut vakolatlari huquqiy mustahkamlangan. Prezidentlik instituti imkoniyatlari cheklangan bo'lsada, parlament va konstitutsiyaviy kengashlar o'zlarining qonunchilik va nazorat

funksiyalari orqali tashqi siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olgan. Ayniqsa, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi va Muvofiqlik kengashi o'z faoliyati orqali ruhoniyatning jamiyatdagi mavqeini kuchaytirgan.

Ta'kidlanishicha, XX asr oxiri – XXI asr boshlari Eron tashqi siyosati mamlakatdagi islohotlar ta'sirida bir necha bosqichli evolyutsiyani kechirdi. Islom inqilobidan keyin yangi siyosiy elita tomonidan tashqi siyosat konsepsiyasi qayta ishlab chiqilgani va u mamlakat rahbariyatining diniy-siyosiy qarashlari hamda jamiyatdagi ijtimoiy tendensiyalardan kelib chiqqan holda shakllantirilgan. Bu jarayonda tashqi siyosiy qarorlar rasmiy va norasmiy institutlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish va murosaga kelish mexanizmlari orqali amalga oshirilgan. Eron tashqi siyosati shakllanishida ichki omillar, ayniqsa, islom identikligi va me'yoriy qadriyatlar 1979-yildan so'ng ustuvor ahamiyat kasb etgani ta'kidlangan. Bunda mazkur islom identikligi va adolat tamoyili tashqi siyosiy maqsad va vositalarni shakllantiruvchi asosiy determinant sifatida namoyon bo'lgan. Qayd etilishicha, siyosiy realizm va liberalizm nazariyalari bo'yicha rasional modellar Eron xatti-harakatlarini qisman tushuntirsa-da, konstruktivizm yondashuvi normativ-mafkuraviy drayverlarni batafsil ochib beradi.

Shu bois dissertatsiyaning birinchi bobida Eron tashqi siyosatining tarixiy xususiyatlari va konseptual asoslarini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasidagi xulosalarga ko'ra, Tehron tashqi siyosiy kursi evolyutsiyasi ichki siyosiy jarayonlar, mafkuraviy yo'nalishlar va xalqaro muhit omillari o'zaro ta'sirida shakllangan. Tashqi siyosat konsepsiyasida an'anaviy davlatchilik manfaatlari, diniy legitimizm va pragmatik yondashuv uyg'unlashib, Eronning mintaqaviy va xalqaro jarayonlarda mustaqil aktor sifatida namoyon bo'lishi ta'minlangan. Tashqi siyosat konsepsiyasi ishlab chiqilishi Oliy rahbar, Prezident va Parlament institutlari o'rtasidagi munosabatlar mexanizmi orqali tizimli muvofiqlashtirilib, Eronning xalqaro munosabatlari barqarorligi ta'minlangan. Eron tashqi siyosatining tarixiy xususiyatlari uning hozirgi va istiqboldagi yo'nalishlarini anglashda nazariy va amaliy asos bo'ladi deb xulosa qilingan. Tadqiqot natijasida Eron tashqi siyosati mintaqaviy va global siyosatda "gibrid model" sifatida namoyon bo'lgani ta'kidlangan. 1979-yilgi islom inqilobi Eron tashqi siyosati yo'nalishlarini tubdan o'zgartirib, xalqaro munosabatlarida yangi konseptual paradigmaga asos solgan.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi "Eron tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari va unda Afg'oniston omili"** deb nomlangan va unda Eronning tashqi siyosiy manfaatlari tizimida Afg'onistonning o'rni, Tehroning islom inqilobi g'oyasini mazkur qo'shni davlatga eksport qilish siyosati, shuningdek, Eronning "yumshoq kuch" siyosati xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, dissertatsiyada qayd etilishicha, 1980-1990-yillar xalqaro sanksiyalar sharoitida Tehronning tashqi siyosat strategiyasi pragmatik elementlar bilan to'ldirilib, mafkuraviy va amaliy manfaatlari uyg'unlashtirilgan. Eron tashqi siyosatining umumiy paradigmasi "islom ummati birligi" g'oyasi, pragmatik manfaatlar va mintaqaviy yetakchilikka intilishni ifodalovchi geostrategik ierarxiya asosida shakllangan integrativ model sifatida namoyon bo'lgan. Ushbu tizimda Afg'oniston omili tarkibiy element sifatida o'z o'rniga ega bo'lib, Eron tashqi siyosatining

muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida shakllangan. Bu yoʻnalishda chegara xavfsizligi, qochoqlar masalasi va mintaqaviy kuchlar muvozanati Tehronning tashqi siyosiy qarorlariga bevosita taʼsir koʻrsatgan.

Islom inqilobidan keyin Eron tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlari diniy qadriyatlarning ustuvorligi asosida shakllanib, mazkur tamoyillar global siyosatida mustaqil yoʻl tanlashda, shuningdek, mintaqaviy masalalarga, jumladan, Afgʻonistondagi jarayonlarga munosabatni belgilashda mezon sifatida xizmat qilgan. Tehron tomonidan 1979-1980-yillarda dolzarb xalqaro muammolar boʻyicha qabul qilingan qarorlar yangi paradigmani mustahkamlagan boʻlsa, xalqaro sanksiyalar Eronning global tashqi siyosiy kursi keskinlashuviga olib kelgan. Xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtai nazaridan, Eron rahbariyatining mazkur yondashuvi siyosiy realizm nazariyasi bilan izohlanib, davlat xavfsizligi va kuchlar muvozanatiga intilish sifatida baholangan.

Shu bilan birga, Afgʻoniston muammosi Eronning tashqi siyosiy identikligi va musulmonlar birligi konsepsiyasi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ushbu holat siyosiy konstruktivizm doirasida tahlil qilingan. Dissertatsiyada Eron tashqi siyosatining manfaatlar tizimida Afgʻoniston strategik oʻrin tutishi taʼkidlanar ekan, mazkur davlat ichki ishlariga tashqi kuchlar aralashuvi hamda hududiga xorijiy harbiy kuchlarni joylashtirish masalasi rasmiy Tehron tomonidan Eron milliy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida qabul qilinayotgani izohlab berilgan. Bunday sharoitda rasmiy Tehron tomonidan Yaqin va Oʻrta Sharqda Saudiya Arabistoni taʼsiriga muqobil muvozanat izlanishi va turli xil terroristik va ekstremistik tashkilotlarning transmilliy tahdidlarini cheklashga intilish orqali Eronning mintaqadagi funksional roli kuchaytirilayotgani faktologik materiallar asosida ochib berilgan.

Afgʻonistondagi siyosiy jarayonlar Eron tomonidan institutsional zaiflik, harbiy-siyosiy beqarorlik, xavfsizlik muammolari bilan tavsiflanib, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda barqaror rivojlanishni taʼminlashda qoʻshni davlatlar xavfsizlik tizimining uzviy tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Eronning mazkur jarayonlarga munosabati uning tashqi siyosat strategiyasida muhim oʻrin egallaydi. Tehron Afgʻonistonda barqaror inklyuziv siyosiy tizim shakllanishidan manfaatdor boʻlib, bunda milliy-etnik guruhlar manfaatlarining mutanosib inobatga olinishini zarur deb biladi. Shu bois Eron keng qamrovli hukumat tuzilishini qoʻllab-quvvatlab, unda barcha etnik va diniy ozchiliklar hamda turli siyosiy kuchlar ishtirokini asosiy shart sifatida koʻradi. Bunday yondashuv Tehronning mintaqaviy barqarorlikka qaratilgan pragmatik manfaatlarini bilan birga, uning gʻoyaviy va mafkuraviy qarashlarini ham aks ettiradi.

Shu bois Eron Afgʻonistondagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilib, bir tomondan shialar manfaatlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi siyosiy nufuzini mustahkamlash, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy infratuzilmalarga investisiyalar kiritish va madaniy-gumanitar dasturlarni amalga oshirish orqali oʻz taʼsirini kengaytirishga intildi. Shuningdek, 1979-yildan keyin Eron rahbariyati Afgʻonistonda islom dini tamoyillariga asoslangan davlat boshqaruvi oʻrnatilishini ragʻbatlantirish orqali ham oʻz taʼsir kanallarini institusionallashtirishga harakat qilgan.

XX asr 1980-yillari rasmiy Tehron tashqi siyosati Afg'onistondagi sobiq Sovet Ittifoqi harbiy kontingentiga nisbatan qurollangan shia tuzilmalarining qarshilik harakatlarini qo'llab-quvvatlash va mazkur faoliyatning infratuzilmasini yaratishda Islom inqilobi posbonlari korpusi orqali logistik-tashkiliy ko'mak berishga qaratilganligi ko'rsatib berilgan. Shu o'rinda zikr etilishicha, Afg'onistondagi etno-qabilalar tizimi ustuvor bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muhit Eronning ushbu qo'shni davlatga islom inqilobini eksport qilish siyosatining amalga oshirilishini cheklab qo'ygan.

XX asr oxiri – XXI asr boshida Afg'onistondagi "Tolibon" fenomeni Eronni tashqi siyosiy vositalar va uslublarni yanada diversifikatsiya qilishga, shia jamoalari xavfsizligini himoya qilish, mintaqaviy tahdidlarni cheklash hamda mazkur diniy-siyosiy harakat bilan maxsus diplomatik kanallar orqali muloqotlarni amalga oshirishni taqozo etgan. Bunday yondashuv Eron tashqi ishlar vazirligiga Afg'onistondagi ichki siyosiy arxitekturadagi tektonik siljishlarga tezkor moslashish imkonini bergan. Mazkur davrda Tehronning Afg'onistonga nisbatan olib borayotgan tashqi siyosati ushbu qo'shni davlatda Eron uchun xavfsiz muhitni shakllantirish hamda mintaqada tashqi kuchlarning ta'sirini muvozanatlash maqsadlariga qaratilgan bo'lib, ikki tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan. Bunday sharoitda Tehron mamlakat tashqi siyosatining Afg'oniston vektorida "yumshoq kuch" strategiyasini madaniy diplomatiya institutlari va ommaviy diplomatiya mexanizmlari orqali amalga oshirib, afg'on jamoatchiligida Eronga nisbatan ijobiy fikrni shakllantirish va o'zining hududiy nufuzini kuchaytirishga intilganligi xulosa qilinadi.

Uchinchi bob "Eron va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar dinamikasi va xususiyatlari" deb nomlangan bo'lib, unda mazkur davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik, shuningdek, transchegaraviy suv resruslaridan birgalikda foydalanish hamda afg'onistonlik migrantlarning Eron jamiyatiga infiltratsiyasi muammolari tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur bobda Eronning Markaziy Osiyo strategiyasida Afg'onistonning o'rni geosiyosiy va geoiqtisodiy nazariyalar asosida kompleks tahlil qilingan bo'lib, xalqaro munosabatlarda kuchlar muvozanatining o'zgarishi kontekstida tadqiq etilgan tarixiy davrda ikki davlat aloqalarining mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga ta'siri o'rganilgan, Tehronning Qobulga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining evolyutsiyasi va konseptual asoslari kompleks tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qayd etilishicha, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Eron va Afg'oniston munosabatlari mafkuraviy qarama-qarshilikdan pragmatik hamkorlikka yo'nalgan. Mazkur davrda ikki davlat o'rtasidagi aloqalar keskin xalqaro-siyosiy va mintaqaviy transformatsiyalar ta'sirida shakllangani, jumladan, 1979-yili islom inqilobidan so'ng Eron tashqi siyosatida Afg'oniston masalasi ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lgani ta'kidlangan. 1979-yil dekabrda sobiq Sovet Ittifoqi qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi Tehronning rasmiy mavqeini keskin o'zgartirgan. Eron Qobul hukumati legitimligini e'tirof etmagan va markaziy hokimiyatga muxolif kuchlar bilan aloqalarni mustahkamlagan.

Qayd etilishicha, XX asr 1990-yillari boshida Afgʻonistonda islom davlati tuzilishi Eron uchun yangi imkoniyatlar ochgan boʻlsada, keyinchalik “Tolibon” harakati 1996-yilda Qobulni egallashi va mazkur mamlakatdagi mavqeining kuchayishi ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarni keskinlashtirgan, xususan, 1998-yili Mozori-Sharif voqealari ikki mamlakatni urush holatiga yaqinlashtirgan. Shunga qaramay, Eron hazora va tojik jamoalari orqali Afgʻonistondagi siyosiy jarayonlarga taʼsirini saqlab qolishga intilgan.

2001-yil 11-sentyabr voqealaridan soʻng xalqaro koalitsiya harbiy kuchlari Afgʻonistonga kirishi oʻzaro munosabatlarda yangi bosqichni boshlab bergan. Eron Afgʻonistonda siyosiy barqarorlikni qoʻllab-quvvatlash, infratuzilma va iqtisodiyotni tiklashda faol ishtirok etgan. Shu davrdan boshlab, Tehron chegara xavfsizligini taʼminlash va savdo-tranzit yoʻlaklarini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratgan. XX asr oxiri – XXI asr boshidagi mazkur dinamika Eron-Afgʻoniston munosabatlarini mafkuraviy qarama-qarshilikdan pragmatik hamkorlikka yoʻnaltirgan hamda ikki davlat oʻrtasida iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirgan. Tehron Afgʻonistonning iqtisodiyotini tiklash jarayonlarida qishloq xoʻjaligi, energetika, transport va infratuzilma sohalarida qator yirik loyihalarni amalga oshirgan.

